



2021- yil yanvar-iyul oylarida
Qashqadaryo viloyatida
xizmatlar sohasining
rivojlanishi

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi o'rinni tutadi, uning rivojlanish darajasi esa odamlarning farovonligi va hayot sifatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi.

Jami

Aholi jon boshiga



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 991,5 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 675,8 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,7 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyuloylarida)

**6 991,5 mlrd.
so'm**

120,7 %

**1 675,8
mln. so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	6 991,5	120,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	331,2	119,7
Moliyaviy xizmatlar	1 190,0	130,1
Transport xizmatlari	1 516,9	120,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 454,6	119,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	186,9	105,5
Savdo xizmatlari	2 230,0	113,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	182,1	122,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	268,3	157,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	89,5	120,3
Ijara xizmatlari	188,7	123,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	237,8	123,5
Shaxsiy xizmatlar	232,1	120,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	83,7	110,5
Boshqa xizmatlar	255,3	122,4

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Shaxsiy xizmatlar



**Yashash va ovqatlanish
xizmatlari**



Ijara xizmatlari



**Ko'chmas mulk
bilan bog'liq xizmatlar**



**Sog'liqni saqlash
sohasidagi xizmatlar**



**Me'morchilik
sohasidagi xizmatlar**

Savdo xizmatlari

31,9 %

Transport xizmatlari

21,7 %

Moliyaviy xizmatlar

17,0 %

**Aloqa va axborotlash -
tirish xizmatlari**

4,7 %

**Ta'lim sohasidagi
xizmatlar**

3,8 %

Boshqa xizmatlar

3,7 %

**Kompyuterlarni
ta'mirlash xizmatlari**

3,4 %

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **31,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,2 %** ga yetdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari umumiyligi hajmning **33,1 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,3 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2021- yil yanvar-iyul oylarida yuqori o'sish ta'llim (**57,2 %**), moliyaviy xizmatlar (**30,1 %**), kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (**23,5 %**), ijara (**23,1 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**22,7 %**), qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**5,5 %**) sohasida qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **131,0 %.**

Boshqa xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **94,4 %.**

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **31,9 %** ni tashkil etib, bu esa **2 230,0** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1 757,5** mlrd. so'mga yoki umumiylajmi hajmning **33,1 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

1 757,5

**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm**

2 230,0

94,1

O'sish sur'ati, % da

113,6

**2020- y.
yanvar-iyul**


**2021- y.
yanvar-iyul**

2021- yil yanvar-iyul


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i 85,5 % ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)**



**Avtomobillar
va mototsikllar ulgurji
va chakana savdosini,
jumladan, ularni
ta'mirlash xizmatlarini
qo'shgan holda**



**Avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari chakana
savdo bo'yicha
xizmatlar**



**Ulgurji savdo
xizmatlari
(avtomobillar
va mototsikllar
savdosidan
tashqari)**

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **84,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyul oylarida)

2021- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 190,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **889,4** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi hajmidagi ulushi **17,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **16,7 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **300,6** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **30,1 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **31,0 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **86,6 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **8,4 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **5,0 %** oraliq'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **90,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **4,2 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **5,4 %**.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-iyul oylarida)


2021- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **331,2** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **119,7 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:
2020- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turi hajmi **274,5** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **5,2 %** iga teng bo'lgan. O'sish sur'ati esa **110,7 %** ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

Jami hajmdagi ulushi


2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **97,1 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2020- y.
yanvar-iyul**



**2021- y.
yanvar-iyul**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **97,3 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lif sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-iyul oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **267,3** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **3,8 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **157,2 %** ni tashkil etdi.



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-iyul oylarida xizmatlar hajmi **166,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida o'sish **16,3 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

**154,1
mlrd. so'm**

**2020- y.
yanvar-iyul**

**186,9
mlrd. so'm**

**2021- y.
yanvar-iyul**

Xizmatlar hajmi

85,7 %

105,5 %

O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **32,8 mlrd. so'mga** ortdi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-iyul

**Yashash bo'yicha
xizmatlar**

6,7 %

93,3 %

**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar**

6,2 %

93,8%

2020- y. yanvar-iyul

2021- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'jajida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **93,3 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,8 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- y.
yanvar-iyul**




**2020- y.
yanvar-iyul**

**89,4
mlrd. so'm**

1,3 %

120,3 %



**Xizmatlar
hajmi**


**Xizmatlarning
jami hajmidagi
ulushi**

**O'sish
sur'ati**

**67,8
mlrd. so'm**

1,3 %

93,7%



2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Qashqadaryo viloyati *	6 991,5	120,7	99,8
Qarshi sh.	1 975,1	108,4	99,1
Shahrisabz sh.	409,8	131,3	101,7
tumanlar:			
G'uzor	315,8	129,1	94,2
Dehqonobod	261,3	139,0	91,6
Qamashi	304,6	125,7	92,5
Qarshi	384,2	128,4	92,0
Koson	419,8	125,9	94,0
Kitob	413,3	124,3	94,8
Mirishkor	269,9	145,2	99,2
Muborak	393,2	132,4	97,2
Nishon	250,1	123,8	96,4
Kasbi	248,8	138,4	97,6
Chiroqchi	424,8	118,6	92,1
Shahrisabz	571,1	119,2	91,3
Yakkabog'	349,7	122,9	90,4

*) hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda


2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2021- yil yanvar-iyul oylarida)**



2021- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **28,3 %** (2020- yil yanvar-iyul oylarida – **32,5 %**)ni Qarshi shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Nishon tumani – **3,6 %** (2020- yil yanvar-iyul oylarida Mirishkor tumani – **2,9 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

**2 086,7
ming so'm**



Hajmning o'sishi

**472,1
ming so'mga**

118,6 %

O'sish sur'ati

2021- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 086,7 ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1614,6** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **97,8 %** da qayd etildi.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- avgust holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni**

**2020- yilning
mos davriga
nisbatan
o'sish sur'atlari**



**2020- yilning
mos davriga
nisbatan ular
sonining o'sishi**


**Ularning
umumiyligi
sonidagi
ulushi**

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **58,2 %**, sanoat **13,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **19,1 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **9,6 %** ga to'g'ri keldi.

**2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,7 %** ni, sanoat **13,5 %** ni, qurilish **11,6 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **14,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

**2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(46,5 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **8,4 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,7 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0 %** ga teng bo'ldi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 46,5

Boshqa turdagি xizmatlar – 34,8

Yashash va ovqatlanish bo'yicha – 8,4

Tashish va saqlash – 4,7

Sog'lijni saqlash – 3,6

Axborot va aloqa – 2,0


2021- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 69,1 % ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi 76,8 % ga to'g'ri keldi.

